

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANK SIYOSATINING TAHLILI

**Zulpiyev
Muhammadqodir**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,

Butayev Javlonbek

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatining moliya bozoriga ta'sirini taxlil etish jarayonida quyidagi ilmiy xulosalar olindi: Monetar siyosatning quyidagi vositalari orqali naqd pul emissiya qilish; tijorat banklarining markaziy bankda saqlanadigan majburiy zaxiralari miqdorini kamaytirish; markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasini tushirish; ochiq bozorda davlat g'azna majburiyatlari miqdorini o'zgartirish orqali pul massasi oshirilib boriladi.

Kalit so'zlar: pul kredit, moliya bozori, monetar, tijorat banklari, markaziy bank, stavka, emissiya, g'azna.

SUBJECT: STATISTICS OF THE CENTRAL BANK POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation: During the analysis of the impact of the monetary and credit policy on the financial market in the Republic of Uzbekistan, the following scientific conclusions were obtained: Issuance of cash through the following instruments of monetary policy; reducing the amount of mandatory reserves of commercial banks kept in the central bank; lowering the refinancing rate by the central bank; the money supply is increased by changing the amount of state treasury obligations in the open market;

Key words: money credit, financial market, monetary, commercial banks, central bank, rate, emission, treasury.

ТЕМА: СТАТИСТИКА ПОЛИТИКИ ЦЕНТРАЛЬНОГО БАНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В ходе анализа влияния денежно-кредитной политики на финансовый рынок Республики Узбекистан были получены следующие научные выводы: Эмиссия наличных денег посредством следующих инструментов денежно-кредитной политики; сокращение объема обязательных резервов коммерческих банков, хранящихся в центральном банке; снижение ставки рефинансирования центральным банком; денежная масса увеличивается за счет изменения объема государственных казначейских обязательств на открытом рынке;

Ключевые слова: денежный кредит, финансовый рынок, монетарные, коммерческие банки, центральный банк, ставка, эмиссия, казначейство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida Markaziy bank siyosati muhim o'rin tutadi. Bankning asosiy vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirish, inflyatsiyani nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat. Ushbu maqolada O'zbekiston Markaziy bankining zamonaviy siyosati tahlil qilinib, mavjud muammolar, ularni hal qilish yo'llari va kelajakdagi takliflar ko'rib chiqiladi. Xorijiy va mahalliy tajribalarga asoslanib, bankning moliyaviy sektor rivojlanishidagi roli o'rganiladi.

Markaziy bank siyosatining ahamiyati va vazifalari

Markaziy bank iqtisodiyotda pul massasini tartibga solish, foiz stavkalarini boshqarish va valyuta kursini barqarorlash orqali davlat iqtisodiyotining asosiy muharriq kuchlaridan biridir. O'zbekiston Markaziy banki 1991-yildan buyon mustaqil siyosat yuritib, milliy valyuta – so'mni qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda. Bankning asosiy vazifalari orasida inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, bank tizimini barqarorlashtirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish kiradi. Shu bilan birga, fond bozori rivojlanishiga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish orqali yordam berishi mumkin.


O'zbekiston iqtisodiyotida barqarorlikni saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishga erishishda Markaziy bankning roli muhim hisoblanadi. Har qanday rivojlangan davlat tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Markaziy bank siyosati makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada Markaziy bankning O'zbekistondagi siyosati, amaliy choralari, ularning natijalari va mavjud muammolarni tahlil qilish ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahriri – 2019-yil 11-noyabrda qabul qilingan, O'RQ–580-son) muvofiq, Markaziy bankning asosiy maqsadi – narxlar barqarorligini ta'minlashdir. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining sog'lom rivojlanishi, investitsion muhit barqarorligi va aholining ijtimoiy farovonligi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Ushbu qonunning 5-moddasida quyidagicha belgilangan:

"Markaziy bankning asosiy vazifasi narxlar barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, u makroiqtisodiy muvozanat, barqaror iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlik uchun zarur sharoitlar yaratadi."

Shu asosda Markaziy bank quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali iqtisodiyotda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi:



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili- 1. Milton Fridman (AQSh, monetarist maktab asoschisi)

“Inflyatsiya har doim va har yerda pul hodisasidir.”

Fridman o‘zining monetar nazariyasida Markaziy bankni asosiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi institut sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, iqtisodiy tizimda inflyatsiyani nazorat qilish bevosita Markaziy bankning pul massasini qanday boshqarishiga bog‘liq.

U shuni urg‘ulaydi: Markaziy bank pul taklifini barqaror ushlab tursa, iqtisodiy o‘rish izchil bo‘ladi.

2. John Maynard Keynes (Buyuk Britaniya, keynsian maktab asoschisi)

“Iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishda davlat va markaziy bank hamkorligi muhim.”

Keynes markaziy bankning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida shunday degan: u faqat narxlar barqarorligi emas, balki bandlik darajasi va investitsiya faolligini ham tartibga solishda faol bo‘lishi lozim. Keynesiycha yondashuvda Markaziy bank — bu iqtisodiyotga bevosita aralashuvchi institut.

3. Ben Bernanke (AQSh, sobiq Federal rezerv tizimi raisi)

“Markaziy bank faqat foiz stavkalari bilan emas, ishonch bilan ham iqtisodni boshqaradi.”

Bernanke iqtisodiy inqiroz davrida (2008-yil) Markaziy bankning roli nafaqat monetar siyosatni yuritish, balki iqtisodiy sub’ektlarga psixologik signal berishda ham muhim ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Markaziy bank ishonch yaratadi, bu esa bozorlarning barqarorligiga olib keladi.

4. Frederic Mishkin (AQSh, Columbia universiteti)

“Markaziy banklar inflyatsion targeting orqali iqtisodiy kutilmalarni boshqaradi.”

Mishkin o‘zining “Monetary Policy Strategy” asarida shunday fikr bildiradi:

“Inflyatsion targeting tizimi orqali Markaziy bank faqat narxlar darajasini emas, balki xususiy sektor kutilmalarini ham boshqaradi.”

U bu modelni rivojlanayotgan davlatlar uchun tavsiya qiladi — ayniqsa, O‘zbekiston kabi yangi inflyatsion targeting tizimiga o‘tayotgan davlatlar uchun.

5. Otmar Issing (Yevropa Markaziy bankining sobiq bosh iqtisodchisi)

“Markaziy bankning mustaqilligi — moliyaviy barqarorlikning asosiy kafolati.”

Otmar Issing ta’kidlaydiki, Markaziy banklar siyosiy ta’sirdan xoli bo‘lishi shart. Aks holda, ularning qarorlari qisqa muddatli siyosiy manfaatlarga xizmat qiladi va bu iqtisodiy beqarorlikka olib keladi.

6. Alan Blinder (AQSh, Princeton universiteti)

Blinder fikricha: “Markaziy banklar moliyaviy vositachilik tizimining yuragi hisoblanadi.” U Markaziy bankni tijorat banklari bilan davlat o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlovchi vositachi sifatida ko‘radi. Shu sababli, u pul-kredit siyosatining shaffofligini, oldindan aytib bo‘ladiganligini va izchilligini eng muhim omillar deb biladi.

Shu asosda Markaziy bank quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali iqtisodiyotda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. Pul-kredit siyosatini yuritish orqali makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash

Pul massasining ortiqcha yoki yetishmasligi iqtisodiyotda inflyatsiya yoki deflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Markaziy bank bu siyosat orqali:

Inflyatsiyani nazorat qiladi;

Foiz stavkalari orqali kreditlash jarayonini tartibga soladi;

Bozor ishtirokchilariga narx signallarini beradi.

Qonun hujjatiga asoslangan yondashuv

Markaziy bank to‘g‘risida Qonun mamlakatdagi pul-kredit tizimining asosiy qonuniy bazasi sifatida, bankning mustaqil faoliyat yuritishi va iqtisodiyotdagi rolini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Adabiyotlarda (masalan, milliy moliya institutlari hisobotlari va huquqiy tahliliy maqolalarda) qonunning quyidagi jihatlari ta’kidlanuvchi asosiy fikrlar sifatida ko‘rsatiladi:

Narxlar barqarorligini ta’minlash: Qonunning asosiy maqsadi inflyatsiya darajasini nazorat qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishishdir. Olimlar, jumladan, A.V. Vaxabov va M.B. Hamidullin, shu nuqtai nazardan pul-kredit siyosatining iqtisodiy o‘rishga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sirini tahlil qiladilar.

Monetar avtonomiya: Qonun bankning mustaqil qaror qabul qilish mexanizmini kafolatlaydi va bu orqali iqtisodiyot sub’ektlarining ishonchini oshiradi. Bu fikr, xalqaro adabiyotlarda (Masalan, Milton Fridman va boshqa monetar nazariyotchilar asarlarida) keng qo‘llanilgan, chunki mustaqil Markaziy bank pul-kredit siyosatini sub’ektiv bosimlardan himoya qiladi.

Markaziy bankning iqtisodiy barqarorlikdagi roli

Adabiyotlarda Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o‘rni keng yoritilgan. O‘zbekiston kontekstida bu mavzuda olimlar quyidagi jihatlarni ta’kidlaydilar:

Monetar siyosat va inflyatsiyani nazorat qilish:

M.B. Hamidullinning tadqiqotlari va maqolalarida “pul-kredit siyosatining aniq instrumentlari (asosiy foiz stavkalari, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy rezerve tizimi) orqali inflyatsiyani barqarorlashtirish jarayoni batafsil tahlil qilinadi. Olimlar, bu instrumentlar yordamida iqtisodiyotning real o‘rish ko‘rsatkichlari bilan inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga harakat qiladilar”.

Valyuta kursining barqarorlashuvi:

Qonun hujjatlarida va ilmiy maqolalarda Markaziy bankning valyuta siyosatiga alohida e'tibor qaratilishi ko'rsatilgan. Elmirzayev, va boshqa mahalliy olimlarning fikricha, so'mning erkin konvertatsiyaga o'tishi va bankning intervension siyosati iqtisodiy sub'ektlarga barqaror ishbilarmonlik muhiti yaratishga imkon beradi. Ushbu yondashuv xalqaro tajribalar bilan solishtirganda ham o'ziga xos ahamiyatga ega deb ta'kidlanadi.

Moliyaviy tizim ishonchini oshirish:

Markaziy bankning yirik banklar va moliyaviy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish tizimi, bank sektorining sog'lom rivojlanishiga xizmat qilishi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilinadi. M.B. Hamidullin va boshqa olimlar banklar ustidan nazorat mexanizmini pul-kredit siyosati va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi sinergetik ta'sir sifatida ko'rsatishadi.

Xalqaro tajriba va solishtirma tahlil

Xalqaro monetar nazariya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, quyidagi asosiy nuqtalar qayd etilgan:

Mustaqil Markaziy banklar:

Boshqa mamlakatlar tajribasida mustaqillik Markaziy bankning eng muhim atributi sifatida qabul qilinadi. Masalan, Adam Smith, Milton Friedman va boshqa iqtisodchilarning asarlarida mustaqil monetar siyosat iqtisodiy stabillik va ishonchni oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ham shu yo'nalishda qonunchilik asoslarini shakllantirishga intilmoqda.

Siyosiy-iktisodiy interaktivlik:

Qonun hujjatlari orqali bankning mustaqil faoliyat yuritishi, moliyaviy bozorlarda erkinlik va davlatning fiskal siyosati o'rtasida muvozanatni saqlash masalalari xalqaro adabiyotlarda ham keng muhokama qilinadi. Bu yondashuv mahalliy adabiyotlarda ko'rsatilgan – iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro hamkorligi va davlatning normativ-huquqiy bazasining muhimligi sifatida ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

1. Asosiy stavka dinamikasi (2023–2025)-Sana Asosiy stavka (%) Izoh

2023-yil 14,0 Inflyatsion bosimlarni jilovlash maqsadida yuqori darajada saqlangan

2024-yil 13,5 Inflyatsiya xavflarining kamayishi fonida pasaytirildi

2025-yil 23-yanvar 13,5 Barqarorlikni saqlash maqsadida o'zgartirilmagan

2025-yil 20-mart 14,0 Inflyatsion bosimlar kuchayishi sababli oshirildi

2025-yil 24-aprel 14,0 Avvalgi darajada saqlab qolindi

Manba: Markaziy bank press-revizlari

2. Inflyatsiya ko'rsatkichlari

Markaziy bankning ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda inflyatsiya darajasi 5 foiz atrofida bo'lishi kutilgan. Bu ko'rsatkich Markaziy bankning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan siyosati samaradorligini ko'rsatadi.

2023–2025 yillarda Markaziy bank siyosati tahlili (siyosiy, iqtisodiy, statistik jihatdan)

Yil Siyosiy jihatlari Iqtisodiy jihatlari Statistik ko'rsatkichlar

2023 - Inflyatsion targeting strategiyasini davom ettirish

- Mustaqil MB siyosati ta'minlandi

- MB qonuniy mustahkamlovchi islohotlar davom etdi - Kredit hajmi o'sdi, lekin foiz stavkasi yuqori bo'ldi

- Aholi va biznes kreditlash ehtiyotkor boshqarildi

- Valyuta bozori barqaror saqlab turildi - Asosiy stavka: 14%

- Inflyatsiya: 8,8%

Manba: Markaziy bank inflyatsiya ko'rsatkichlari

3. Bank tizimi aktivlari va kredit portfeli

2023-yilning 9 oylik davrida bank tizimining umumiy aktivlari va kredit portfeli o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Bu iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilikning rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Manba: Markaziy bank statistik byulleteni

4. Valyuta kursi dinamikasi

2025-yil may oyida 1 AQSh dollari 12 935,27 so'mga teng bo'ldi. Bu valyuta kursining barqarorligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki siyosatini tahlil qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llaniladi:

1. Statistik tahlil: Markaziy bankning rasmiy hisobotlari, pul-kredit statistikasi, inflyatsiya ko'rsatkichlari va valyuta kursi dinamikasi kabi ma'lumotlar o'rganiladi. Bu ma'lumotlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini miqdoriy baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Qiyosiy tahlil: O'zbekiston Markaziy banki siyosati xorijiy markaziy banklar (masalan, Rossiya, Qozog'iston) tajribasi bilan solishtiriladi. Bu pul-kredit va valyuta siyosatining samaradorligini baholashda yordam beradi.

2. Sifatli tahlil: Ilmiy adabiyotlar, ekspert mulohazalari va qonunchilik hujjatlari (masalan, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun) tahlil qilinadi. Bu siyosatning huquqiy va institutsional asoslarini chuqur tushunish imkonini beradi.

3. 4. Tizimli yondashuv: Makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, tashqi savdo balansi) va Markaziy bank siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilinadi.

2023–2025 yillarda Markaziy bank siyosati tahlili (siyosiy, iqtisodiy, statistik jihatdan)

Yil Siyosiy jihatlari Iqtisodiy jihatlari Statistik ko'rsatkichlar

2023 - Inflyatsion targeting strategiyasini davom ettirish

- Mustaqil MB siyosati ta'minlandi

- MB qonuniy mustahkamlovchi islohotlar davom etdi - Kredit hajmi o'sdi, lekin foiz stavkasi yuqori bo'ldi

- Aholi va biznes kreditlash ehtiyotkor boshqarildi
- Valyuta bozori barqaror saqlab turildi - Asosiy stavka: 14%
- Inflyatsiya: 8,8%
- YAIM o'sishi: 5,6%

2024 - MB moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan ehtiyotkor siyosat yuritdi

- Qonuniy asosda foiz siyosatini moslashtirish amalga oshirildi - Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun stavka 13,5% ga tushirildi

- Kreditlash bo'yicha yumshatish bosqichi boshlandi
- Davlat obligatsiyalari bozori faollashdi - Asosiy stavka: 13,5%
- Inflyatsiya (sentabr): 10,5% - Bazaviy inflyatsiya: 7,1%
- YAIM prognozi: 5,5–6%

2025 (may holati) - MB narxlar barqarorligi maqsadiga sodiq qolmoqda

- Foiz stavkasi inflyatsiyani jilovlash uchun qayta oshirildi - Kredit bozorida ehtiyotkorlik kuchaydi

- Investitsiyalarni ushlab turish uchun foiz stavkasi 14% ga qaytarildi
- MB valyuta intervensiyalarini davom ettirmoqda - Asosiy stavka (mart): 14%
- Inflyatsiya: yakuniy ma'lumot hali yo'q - YAIM: 2025 yil oxiriga prognozlanmoqda

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2017-yildan boshlab iqtisodiyotda tub islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, 2023–2025 yillar oralig'ida Markaziy bank siyosatining asosiy e'tibori narxlar barqarorligi, inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

1. Pul-kredit siyosatining izchil yuritilishi

Markaziy bankning asosiy vazifasi – inflyatsiyani belgilangan maqsad darajasida ushlab turishdir. 2023-yilda asosiy stavka 14% qilib belgilangan bo'lsa, 2024-yilda inflyatsiyaning nisbatan pasayishi fonida u 13,5%gacha tushirilgan. Biroq 2025-yil mart oyida inflyatsion bosimlar yana kuchaygani sababli foiz stavkasi yana 14%ga oshirildi. Bu shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoqda va inflyatsiyaviy kutilmalarga sezgir yondashmoqda.

2. Inflyatsion targetting tizimi doirasidagi yondashuvlar

Markaziy bank 2021-yildan boshlab inflyatsion targetting tizimini joriy etmoqda. Bu tizim orqali yillik inflyatsiya darajasi uchun aniq maqsad belgilanadi (masalan, 2024-yil uchun – 5%). 2024-yil sentabr holatiga ko'ra inflyatsiya 10,5% bo'lgan bo'lsa-da, bazaviy inflyatsiya 7,1% atrofida bo'lib, bu Markaziy bank maqsadiga yaqinlashayotganini bildiradi.

3. Valyuta siyosatida erkinlik va nazorat muvozanati

So'mning erkin konvertatsiyaga o'tishi (2017) Markaziy bank siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Valyuta kursi bozor mexanizmlariga asoslangan holda shakllanmoqda. Biroq 2023–2025 yillarda so'm kursining tebranishiga qarshi intervensiyalar amalga oshirilib, keskin devalvatsiya xavfi jilovlandi. Bu iqtisodiy ishonchning saqlanishiga xizmat qildi.

4. Bank sektori va moliyaviy barqarorlik

Markaziy bank tijorat banklarini transformatsiya qilish, davlat ulushini kamaytirish, kapital yetarliligini oshirish, xalqaro moliyaviy standartlarga (IFRS) o'tish orqali moliyaviy tizimni barqarorlashtirmoqda. 2024-yil oxiriga kelib, bank aktivlarida xususiy sektor ulushi oshdi, bu esa moliyaviy bozorlar raqobatbardoshligini ko'rsatadi.

5. Makroiqtisodiy muvozanatga ta'siri

Foiz stavkalarining yuqori bo'lishi qisqa muddatda kredit faolligini pasaytirgan bo'lsa-da, bu holat inflyatsiyani jilovlash, milliy valyuta barqarorligini saqlash va iqtisodiyotda ortiqcha isinishning oldini olish uchun zarur edi. Shuningdek, Markaziy bankning o'z qarorlarini shaffof va ochiq tarzda e'lon qilishi investorlar va xalqaro reyting agentliklari tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Umumiy natijalar:

Markaziy bank o'zining asosiy vazifasiga – narxlar barqarorligini saqlashga qat'iy sodiq qolmoqda.

Siyosat ehtiyotkor va kutilmalar asosida shakllantirilmoqda.

Pul-kredit va valyuta siyosatidagi bosqichma-bosqich yondashuvlar iqtisodiy tizimda ishonchni mustahkamladi.

Foiz stavkalarining oshirilishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni cheklagan bo'lsa-da, bu barqarorlikka xizmat qildi.

Bank tizimidagi islohotlar – moliyaviy bozorlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Milliy valyuta devalvatsiya jarayonining davom etishi milliy valyutada emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarga jalb etilgan xorijiy invsitiyalar real qiymatining pasayishiga olib keladi va qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qimmatli qogozlar bozorining rivojlanishi mamlakatdagi pul massasining ortib borishi bilan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Iqtisodiyotdagi ortiqcha pul massasining mavjudligi uni iste'mol va jamg'arishdan ortgan kisminn moliya bozorlariga yo'naltirishni ta'minlaydi. Shu jumladan, ortiqcha pulning mavjudligi esa, portfel investitsiyalar ko'payishiga turtki bo'ladi.

Davlat o'zining makroiqtisodiy siyosati orqali pul massasini o'zgartirib turadi va quyidagi dastaklar yordamida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga ta'sir etadi: Inflyatsiya darajasi, tijorat banklarining markaziy bankda saqlanuvchi majburiy zaxira normalari, qayta moliyalashtirish stavkalarining ortishni qimmatli qog'ozlar bozorining o'sish sur'atlariga teskari mutanosiblikda bo'ladi. Inflyatsiya darajasiniig yukori bo'lishi, qayta moliyalashtirish stavkasi va unda saqlanuvchi tijorat banklarining majburiy zaxira normalarining yuqori bo'lishi qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi mablag'larining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliya bozoriga ta'siri samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozori barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tijorat banklariga garovli ssudalar berish va valyutaviy svop operatsiyalaridan doimiy tarzda foydalanish orqali pul-kredit siyosati ta'sirchanligini oshirish zarur, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining diskont va

lombard kreditlari berish amaliyotini rivojlantirish orqali qayta moliyalash siyosati samaradorligini oshirish lozim. Yuqori kredit reytingiga (kamida VVV) ega bo'lgan korxonalarining aktsiya va obligatsiyalarini Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarining ob'ektiga aylantirish yo'li bilan uning ochiq bozor siyosati orqali muomaladagi pul massasiga ta'siri darajasini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

- 1.Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2010. -526 b.
- 2.Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. – T.: Sharq, 2003. -400 b.Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
- 3.Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2009. -210 b.
- 4.Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- 5.Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
- 6.Yutkina T.F. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. 8-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2011. -576 s.
- 7.Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.